



UDK:415.61=20(045)

Raxima BERDIYOROVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: berdiyovorarahima@gmail.com

O'zDJTU professori, f.f.d J.Yakubov taqrizi asosida

ZAMONAIY TILSHUNOSLIKDA OKKAZIONAL FRAZIOLOGIK BIRLIKLARNING QO'LLANISHIGA DOIR QARASHLAR

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy tilshunoslikdagi okkazonalizmlarning mohiyati, shakllanish usullari va qo'llanilishi tahlil qilingan. Okkazonalizmlar muallifning individual ijodiy yondashuvini, emotsional bahosini ifodalash, shuningdek, matnning ekspressivligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqilgan. Ingliz va fransuz tillaridagi okkazonal frazeologik birliklarning hosil bo'lishi va funksional xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan. Pragmatika va pragmalingsvistika sohalaridagi tadqiqotlar asosida okkazonalizmlarning nutqiy vaziyatga bog'liqligi va matn ichidagi o'rni ko'rsatilgan. Tadqiqot natijasida kelajakda okkazonal frazeologik birliklarning qiyosiy tadqiqiga ehtiyoj mavjudligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Okkazonalizm, pragmatika, pragmalingsvistika, frazeologiya, ekspressivlik, nutq birliklari, uslubiyat, semantik xususiyatlar, ingliz tili, fransuz tili.

VIEWS ON THE USE OF OCCASIONAL PHRASEOLOGICAL UNITS IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

The article analyzes the essence, methods of formation, and usage of occasionalisms in modern linguistics. Occasionalisms are considered as a means of expressing the author's individual creative approach, emotional evaluation, and enhancing textual expressiveness. Particular attention is paid to the formation and functional characteristics of occasional phraseological units in English and French. Based on research in pragmatics and pragmalingsvistics, the dependence of occasionalisms on speech context and their role in texts is highlighted. The study emphasizes the need for comparative research on occasional phraseological units in future investigations.

Key words: Occasionalism, pragmatics, pragmalingsvistics, phraseology, expressiveness, speech units, stylistics, semantic features.

ВЗГЛЯДЫ НА ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОККАЗИОНАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В статье рассмотрены сущность, способы формирования и употребления окказионализмов в современной лингвистике. Окказионализмы представлены как средство выражения индивидуального творческого подхода автора, эмоциональной оценки, а также повышения экспрессивности текста. Особое внимание уделено формированию и функциональным особенностям окказиональных фразеологических единиц в английском и французском языках. На основе исследований в области прагматики и прагмалингвистики показаны зависимость окказионализмов от речевого контекста и их роль в тексте. В результате исследования отмечена необходимость проведения сравнительного анализа окказиональных фразеологических единиц в будущих исследованиях.

Ключевые слова: Окказионализм, прагматика, прагмалингвистика, фразеология, экспрессивность, речевые единицы, стилистика, семантические особенности.

Kirish. Dunyo tilshunosligida uzoq vaqt davomida tilshunoslar til va nutqning umumiy munosabati muammosini leksik va so'z yasash doirasida aniqlab kelishgan. Okkazonalizm tilshunoslar tomonidan so'z, ma'no, ibora, tovush birikmasi, sintaktik shakllanish sifatida ta'riflangan. Adabiy me'yordagi so'zlar va okkazonalizmlar, potensial so'zlar va alohida muallif lug'ati o'rtasida aniq chegara qo'yilmagan. Shu bilan birga, me'yoriy so'zlar til birliklari sifatida qaralsa, okkazonalizmlar esa nutq birliklari hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlariga oid tadqiqotlarning keng ko'lamda amalga oshirilayotgani ijobiy holatdir, shuning bilan birga ingliz tilida mualliflik okkazonal frazeologik birliklarning shakllanish muammosi yetarlicha o'rganilmagan. Ingliz tilida okkazonalizmlar qo'llanishining eng samarali usullarini ta'kidlashda ham alohida nomuvofiqliklar mavjud. Ushbu

tadqiqotda zamonaviy ingliz tilidagi okkazonal frazeologik birliklarning shakllanish va qo'llanish usullari ko'rib chiqiladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi zamonaviy ingliz tilida mualliflik okkazonalizmlarining shakllanishi muammosining yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq. Ayniqsa, tadqiqotchilarda okkazonalizmlarning uslubiy-estetik xususiyatlari qiziqish uyg'otadi, ularning o'ziga xosligi ingliz tilidagi badiiy adabiyotni tushunish va talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda respublikamizning tilshunoslik sohasida ingliz tilida komparativ frazeologizmlarni tadqiq etish, uning tildagi o'rni, ahamiyati, struktur-semantik va funksional xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish zarurati kuchaymoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda pragmatika tilshunoslikning dolzarb yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda "pragmatika" va "pragmalingsvistika" so'zlari qo'llanishining leksik, semantik

va sintaktik xususiyatlari haqida ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan A.F.Artemova[1], Y.D. Apresyan[2], Ch.P. Pirs[3], Y.K. Melvil[4], kabi tilshunos olimlarning asarlarida buni kuzatish mumkin.

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar.

Ushbu tadqiqotning obyekti zamonaviy tilshunoslikda ingliz va fransuz tillarida qo'llaniladigan okkazonal frazeologik birliklardir. Tadqiqot jarayonida ingliz va fransuz tilidagi okkazonalizmlarning shakllanishi, qo'llanish xususiyatlari hamda pragmatik jihatlari o'rganilgan.

Maqolada asosan tavsifiy, qiyosiy-tahliliy hamda pragmatik analiz metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod orqali okkazonal frazeologik birliklarning mohiyati, funksional va stilistik jihatlari batafsil ta'riflandi. Pragmatik analiz usuli orqali esa mazkur frazeologik birliklarning kontekstga bog'liq bo'lishi, ularning nutqdagi ekspressiv va pragmatik funksiyalari atroflicha tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali mavjud ilmiy qarashlar va tadqiqotlarning nazariy jihatlari umumlashtirildi.

Zamonaviy tilshunoslikda okkazonalizmlarni, ularni hosil qilish, turli janrlardagi matnlarda qo'llanishining o'ziga xos xususiyatlari, ularning so'z hosil qiluvchi va stilistik xarakteristikalarini o'rganishga va tadqiq qilishga qaratilgan ko'p sonli ilmiy tadqiqotlar va ishlar mavjud [5]. Olimlarning fikricha, mualliflik so'zlari yaratilishining asoiy sababi shundaki, zamonaviy tilda uning leksik zaxirasining faol bo'lishi yuz bermog'ida. Hozirgi leksikada ko'rish mumkin bo'lgan eng xarakterli va ayni paytda eng farq qiluvchi jarayon unga yangi birliklarning qo'shilish jarayonidir. Ushbu jarayonga zaruriyat jamiyat ehtiyojlari bilan aniqlanadi, ushbu so'zlarning eng keng ma'nosida talqin qilinadi. Okkazonal so'zlar keng tarqalgan va butun konkret jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan faqat yangi reallikni, hodisani, fenomenni nomlash uchungina emas, balki individual kechinmalarning, kayfiyatlarning nozik konnotatsiyalarini aks ettirish, borliqning ayrim hodisalariga baho berish uchun ham paydo bo'ladi.

Okkazonalizm yaratishning eng ko'p sabablaridan biri sifatida "fikrni qisqa bayon qilishga intilish (ko'pincha yagona so'z butunlay bitta so'z birikmasini, yoki hatto gapni almashtiradi)" talqin qilinadi; "so'z birikmasini o'zi bilan almashtirib, okkazonalizmlar nutqni tejashga xizmat qiladi, uning mazmunij hajmiga va ekspressiv boyishiga ko'maklashadi"[6].

Yangi, okkazonal so'zlarni yaratishning yana bir sababini tadqiqotchilar "so'zning o'ziga xos shakli bilan uning ma'nosiga e'tibor berishda yoki so'zga yangi ma'no bag'ishlashga intilishda", shuningdek, "muallifning shakl va mazmun birligini jonlashtirish", "matnda nozik so'z o'yinini yaratish istagida". Okkazonalizm yordamida muallif tasvirlanayotgan predmetga yoki hodisaga o'z munosabatini bildirishga, ularning xarakteristikasini taklif qilishga, baho berishga intiladi [6].

Badiiy adabiyotda yangidan yasalgan leksemalarning paydo bo'lishi nafaqat ma'lum emotsional konnotatsiyani yaratishga intilish bilan emas, balki kitobxonga yetkazishda lozim bo'lgan ishonch bilan ham belgilanadi. Okkazonalizmlarning badiiy asarda paydo bo'lishi, boshqa omillardan tashqari, yana yangi realiyalarni, tushunchalarni, hodisalarni nomlash zaruriyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ularni ifodalash uchun konkret tilda barqaror bo'lib qolgan vositalar mavjud emas.

Birlikning hosil qilinishi boriga ko'ra shu shart bilan tejamkorki, yangi hosilani ishlab chiqishga adekvat so'zni yoki tasvirlovchi jumlani qidirishga qaraganda kamroq energiya sarflanadi.

Okkazonalizmlarning tejamkorligi ko'pincha hosil qilish usullari bilan bog'liq – ko'pchilik okkazonalizmlar tilda bor bo'lgan tayyor asoslardan hosil qilingan hisoblanadi va tayyor andozalar bilan analogiya asosida yasalgan. Bunday okkazonalizmlar potensial deb atalgan so'zlardan iboratdir.

Ilmiy manbalarda ifodalangan "okkazonalizm" tushunchasi mazmun- mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Okkazonalizm (okkazonal so'z) atamasi birinchi bor N.I. Feldman tomonidan "Okkazonal so'zlar va leksikografiya"[7] maqolasida kiritilgan, u qarab chiqilayotgan hodisani quyidagicha ta'riflagan: "Qo'lbola so'zlarning ular go'yoki o'sib chiqadigan kontekst bilan uzviy aloqasi ularni o'z joyida o'rinli va ayniqsa ifodali qiladi, ammo shu bilan birga, odatda, kontekstdan ajralib chiqishiga va undan tashqarida hayotga erishishiga to'sqinlik qiladi.

Ularining mana shu asosiy xususiyati tilga kirgan neologizmlardan farqli ravishda, okkazonal so'zlar deb atashga imkon beradi". Tadqiqotchi okkazonal hosilalarning quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: doimiy yangilik, tildan tashqarida ishlash, muallifning mavjudligi, okkazonalizmning yaratilishini talab qilgan kontekst bilan uzviy aloqa, ma'lum joyda yoki kontekstda okkazonal so'zning alohida ifodaliligi.

"Okkazonal so'z va okkazonal so'z hosil qilish" nomli maqolada tadqiqotchi E.I.Xanpira okkazonal so'zning quyidagi ta'rifini taklif qiladi – bu "kam mahsuldor yoki mahsuldor bo'lmagan andoza bo'yicha, shuningdek, okkazonal (nutq) andoza hamda ma'lum holat uchun yoki oddiy xabar maqsadida, yoki badiiy maqsadda yaratilgan"[8] so'zdir.

O'zbek tilshunoslaridan U.A.Safarova "Zamonaviy fransuz tilida kontaminatsiyaning struktur- semantik aspektlari" mavzusidagi tadqiqotida zamonaviy fransuz tilida so'z va frazeologik birliklarning yasallishi tizimida kontaminatsiyaning o'rni hamda o'rganilayotgan tilning kontaminatsiyalangan leksik va frazeologik birliklarining tizimli-semantik jihatlari aniqlagan [10]. Mazkur ishda olima biz tahlil qilayotgan okkazonal so'zlarning eng muhim o'ziga xos xususiyatlarini sakkizta semantik guruhga ajratgan. Ular quyidagilar:

Okkazonal so'z muayyan tilning so'z yasash imkoniyatlarini nutqda amalga oshirishdir, demak, oraliq so'zni tavsiflovchi eng keng belgi uning nutqqa mansubligidir, chunki adabiy meyoridagi so'zdan farqli o'laroq, matnda tasodifiy so'zning bo'lishi shart emas. Yuqorida aytilganlarga asosanib xulosa qilishimiz mumkinki, okkazonal so'zning paydo bo'lishi til tizimining o'zi, uning umume'tirof etilgan meyorlari tomonidan oldindan belgilab qo'yilganligini ta'kidlagan holda adabiy meyoridagi so'z til birligi, oraliq so'z esa nutq birligidir.

Okkazonal so'zlarning eng xarakterli xususiyati ularning nomeyoriyligidir, chunki har qanday okkazonalizm grammatik, derivativ, semantik meyorlarning buzilishi natijasida paydo bo'ladi yoki yuzaga keladi.

Okkazonal so'zning eng muhim xususiyati uning bir martalik funksional qo'llanilishidir. Odatda bunday so'zlar okkazonal bilan so'z so'zlovchilar yoki yozuvchilar tomonidan yaratiladi, shuning uchun u nutqda faqat bir marta ishlatiladi. Mutlaqo "yangi" okkazonalizm nutq vaziyatining o'ziga xosligini yoki ifoda soyasini yaratishga qodir.

Okkazonal frazeologizmlarning barcha ma'nolarini bilishning iloji bo'lmaganligi sababli, ba'zan ularning asl mazmunini aniqlash uchun va tarjimada adashib ketmaslik uchun kodlab lug'aviy manbalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham badiiy asar tarjimasida okkazonal frazeologizmlarning matnda qanday ifodalanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

M.Akbarov[9] o'z tadqiqotida fransuz tilidagi okkazonal frazeologizmlarning ko'p tarqalgan turlarini fransuz

asarlaridan olingan ba'zi stilistik xususiyatlarini tahlil qilgan. Mazkur ishda okkazonal frazeologiya nafaqat og'zaki nutqda, balki yozma nutqda ham o'ziga xos o'rin egallashi, shuningdek, zamonaviy fransuz tilida transformatsiyaga uchragan okkazonal frazeologik birliklarning murakkablik darajasi aniqlangan, shuning uchun ishda okkazonal frazeologizmlar mikrokontekst ichida yaqin ma'noli so'zlar qurshovida hosil bo'lishi isbotlangan va okkazonal frazeologik birliklarning matnga bog'liqligi mutlaq, nisbiy va minimal ma'no darajalari orqali asoslangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikda okkazonalizmlar muammosi til va nutq birliklari doirasidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida okkazonalizm tushunchasining mohiyati, uning turli tillarda, xususan ingliz va fransuz tillarida qo'llanishi, shakllanish usullari, ularning uslubiy va estetik xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, okkazonalizmlarning asosiy vazifasi faqatgina yangi tushunchalarni ifodalash emas, balki muallifning individual nuqtai nazarini, emotsional bahosini aks ettirish va nutqning ekspressivligini oshirishdir.

Okkazonalizmlar nutqni qisqa va ta'sirli ifodalash, nutq tejamlorligi, shuningdek, matnda shakl va mazmun birligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Shuningdek muallifning ijodiy niyatlarini kontekstga bog'liql okkazonal so'zlarning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ko'rish mumkinligi aytiladi. Shu bilan birga ishimizda tilshunos olimlarning ishlari asosida okkazonalizmlar tasnif qilindi va ularning nutqiy vaziyatga bog'liqligi, bir martalik foydalanish xususiyatlari, shuningdek, ular orqali muallifning individual psixologik holatini ifodalash imkoniyatlari o'rganildi. Ingliz tilida okkazonal frazeologik birliklarning shakllanish va qo'llanish xususiyatlariga yetarli darajada e'tibor berilmagan qayd etilib, ularning tadqiq etilishi zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarb vazifa ekanligi ta'kidlandi. Shuningdek, maqolada pragmatika va pragmatolingvistika sohalaridagi tadqiqotlarning ahamiyati, pragmatik jihatdan okkazonalizmlarning o'rni va matn ichidagi funksional xususiyatlari ham o'rganildi.

Umuman olganda, maqolada ko'rilgan masalalardan kelib chiqib aytish mumkinki, okkazonalizmlar zamonaviy tilshunoslikda nafaqat yangi so'z yasash, balki muallifning dunyoqarashi, emotsional-psixologik holati va matnning ekspressivligini oshirish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda turli tillarda okkazonal frazeologik birliklarning qiyosiy tadqiqiga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Агаркова О.А., Путилина Л.В. Прагматика и интонация французского речевого этикета // Вестник ОГУ №11 (160)/ноябрь 2013. – с. 186-191.;
2. Апресян Ю. Д. Прагматическая информация для толкового словаря. // Прагматика и проблемы интенциональности. – М., 1988.;
3. Пирс Ч.П. Начала прагматизма. // Перевод с английского, предисловие В.В.Кирющенко, М.В. Колопотина — СПб.: Лаборатория метафизических исследований философского факультета СПбГУ; – Алетейя, 2000.
4. Мельвиль Ю.К. Чарльз Пирс и прагматизм. – М.: МГУ, 1968.
5. Муравьева Н. В. Документная лингвистика. - М: термика, 2016.
6. Агаронян И.В. Словообразование окказионализмов-существительных в ... Материалы научной конференции (12-15 сент.1972 г.), I, - Самарканд, 1972.
7. Feldman N.I. tomonidan "Okkazonal so'zlar va leksikografiya" 1957.
8. Ханпира, Э.И. Об окказиональном слове и окказиональном словообразовании современного русского языка / Э.И. Ханпира. - М., 1966.
9. Akbarov M.Sh. Fransuz tilida okkazonal frazeologizmlarning stilistik xususiyatlari: Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023.
10. Сафарова У.А. Замонавий француз тилида контаминациянинг структур-семантик аспекти: Филол. фанлари доктори ... диссер. автореф. СамДУ. 2022.